

№3-AMALIY ISHI

Mavzu: Internet bilan tanishish. Brauzer dasturi bilan ishlash.

Ishning maqsadi: Talabalarga internet tarmog‘i va brauzer dasturida Amaliy ishlashni o‘rgatish.

Ish uchun kerakli jihozlar: kompyuterlar, tarmoq uchun kerakli qurilmalar va dasturiy vositalar.

Qisqacha nazariy ma‘lumot. Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya‘ni “International Network” – halqaro tarmoq va “Interconnected networks” “tarmoqlararo” degan ma‘noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo‘lib, o‘zining alohida axborot maydoniga ega bo‘lgan virtual to‘plamdan tashkil topadi.

Internet tarmog‘i, unga ulangan barcha kompyuterlarning o‘zaro ma‘lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. Internet tarmog‘ining har bir mijoz o‘zining shaxsiy kompyuteri orqali boshqa shahar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. Masalan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi katalogini ko‘rib chiqish, Nyu-Yorkdagi Metropolitan muzeyining oxirgi ko‘rgazmasiga qo‘yilgan suratlar bilan tanishish, halqaro anjumanlarda ishtirok etish, bank muomalalarini amalga oshirishi va hatto boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi Internet tarmog‘i mijozlari bilan shaxmat o‘ynash mumkin.

Internet tarmog‘ining asosiy yacheykalari (qismlari) bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o‘zaro bog‘lovchi lokal tarmoqlardir. Internet tarmog‘i – bu global tarmoq vakili hisoblanadi.

Internet alohida kompyuterlar o‘rtasida aloqa o‘rnatibgina qolmay, balki kompyuterlar guruhini o‘zaro birlashtirish imkonini ham beradi. Agar bironbir lokal tarmoq bevosita internetga ulangan bo‘lsa, u holda mazkur tarmoqning har bir ishchi stansiyasi (kompyuteri) Internet xizmatlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, Internet tarmog‘iga mustaqil ravishda ulangan kompyuterlar ham mavjud bo‘lib, ularni xost kompyuterlar (host – asosiy hisoblash mashinasi) deb atashadi. Tarmoqqa ulangan har bir kompyuter o‘z manziliga ega va u yordamida dunyoning istalgan nuqtasidagi istalgan foydalanuvchi bilan muloqot qila olishi mumkin.

Internet o‘z - o‘zini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim bo‘lib, asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan:

- texnik;
- dasturiy;
- axborot.

Internet tarmog‘ining texnik ta‘minoti har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari (telefon, sun‘iy yo‘ldosh, shisha tolali va boshqa turdagi tarmoq kanallari) hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.

Internet tarmog‘ining dasturiy ta‘minoti (tarkibiy qismi) tarmoqqa ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida (yagona tilda) ishlashni ta‘minlovchi dasturlar.

Internet tarmog'ining axborot ta'minoti Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan.

Internetning ikkita asosiy vazifasi bo'lib, buning birinchisi axborot makoni bo'lsa, ikkinchisi esa kommunikatsion vositasidir.

Topshiriqlar:

1. Internetga ulanish qanday bajariladi?
2. Internet tarmog'i xizmatlarini sanab bering.
3. Telefon liniyasi orqali Internetga ulanish qanday bajariladi?
4. Internet Exploler dasturining tarkibiy tuzilishi qanday elementlardan iborat?
5. Internet Exploler dasturi interfeysini tushuntirib bering.
6. Vkladkalar nima uchun ishlatiladi?
7. Xonodon (Домашняя страница) sahifasi haqida ma'lumot bering?
8. Yashirin tartib o'rnatish haqida ma'lumot bering?
9. Brauzerdagi navigatsion tugmalar qanday vazifalarni bajaradi?
Holatlar satri qanday vazifalarni bajaradi?